

DOSTONLARDAGI TURKIY ASOSLI AYOL NOMLARI

Yo‘ldashova Rayxon Baxtiyor qizi

Annotatsiya. *Ushbu tezisimizda Xorazm dostonlaridagi turkiy asosli ayollar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari, etimologiyasi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *asos, indikatorlar, antraponimlar, antropoformant, asosdan oldin va keyin qo‘shiladigan birliklar.*

Abstract. *This thesis reveals the lexical-semantic features and etymology of female names with Turkic roots in Khorezm epics.*

Keywords: *root, indicators, anthroponyms, anthropoformant, units added before and after the root.*

Аннотация. *В данной диссертации рассматриваются лексико-семантические особенности и этимология женских имён тюркского происхождения в хорезмийских эпохах.*

Ключевые слова: *корень, индикаторы, антропонимы, антропоформанты, единицы, добавляемые до и после корн.*

Ma’lumki, Xorazm regionida tarqalgan dostonlar tilida shu hududning lahja va shevalari o‘zining bor jilosi bilan sof holda saqlanib keladi. Bu o‘lkada qadimdan hozirgi turkiy tillar bilan qarindosh bo‘lmagan tilda muomala qiluvchi aholi yashab kelgan va tarixning muayyan bir bosqichida turkiy tillarda gaplashuvchi aholining ko‘chib kelib o‘rnashishi natijasida shu yerli aholi tili bilan ko‘chib kelgan kishilar madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi, shu qatorda, tili ham to‘qnash keldi.

Tillarning o‘zaro to‘qnash kelgan areallarida ikki tilga taalluqli birliklar o‘rtasida dominantlikka intilish, boshqacha aytganda, yashash uchun yashirin kurash yuz beradi⁷. Oxir oqibatda qaysidir til unsuri g‘olib bo‘ladi va mavjud tilda mustaqil o‘rnashib oladi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan tub turkiy qatlam, o‘zbek tilining o‘z qatlami sifatida baholanayotgan ekan, e’tibordan qochirmaslik kerakki, aslan olib qaraganda, turkiy qatlamning o‘zi ham diaxron nuqtayi nazardan o‘ziga xos qatlam sifatida baholanishi mumkin. Ushbu ishimizda sinxron xususiyatlar asosida tekshirish mo‘ljallangani uchun o‘z qatlamga oid birliklar sifatida sof o‘zbekcha, turkiy tillarga oid birliklarni birinchi navbatda tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Olib borilgan tekshirishlardan ma’lum bo‘ladiki, Xorazm dostonlari tilida uchraydigan nomlarning aksariyati kishi nomlari (antroponimlar)dan iborat. Nomshunoslik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham kishi ismlarining balansi boshqa turdagi onomastik birliklardan

⁷ Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2020. – B.35.

ancha ustun ekanligi qayd qilinadi. Jumladan, taniqli o‘zbek nomshunosi E.Begmatov asarlarida ham mazkur holat ko‘p jihatdan yoritib berilgan⁸.

Antroponim atamasi ostida birlashuvchi mazkur ononmastik guruh o‘zbek milliy tili tarkibida muayyan o‘rinni egallab keladi. Bu atama grek tilidan olingan bo‘lib, *antro* – odam va *onim* – nom kabi qismlar asosida yuzaga kelgan. O‘zbek tilshunosligida mazkur atama o‘rnida *ism*, *kishi ismi*, *kishi nomlari*, *odam otlari* kabi xilma xil lingvistik atamalar baravar ishlatilib kelinadi.

O‘zbek tilida mavjud kishi ismlarining katta miqdori leksik qatlamlar nuqtayi nazaridan o‘zlashgan qatlam birliklari asosida shakllangan. Xorazm dostonlari tilida uchraydigan kishi ismlarining leksik qatlamlar borasidagi tekshirishlari ham o‘zbek tili antroponimikasi taraqqiyoti qonuniyatlariga to‘liq mos keladi. Ya’ni, ularning statistikasi shundan dalolat beradiki, katta miqdor kishi nomlari o‘zlashgan qatlamga xos birliklar asosida shakllangan⁹.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, o‘sha katta foizga ega kishi ismlarining juda kam miqdorini ayollarga xos bo‘lgan ismlar tashkil etadi. Bu miqdor taxminan o‘nga bir ulushni tashkil etadi desak xato bo‘lmaydi.

Ma’lumki, atoqli otlar o‘z lisoniy tabiatiga ko‘ra tilning boshqa qatlamlariga qaraganda, muayyan darajada *turg‘un*, *tarjima qilinmaydigan*, *nisbatan konservativlik* xususiyatini saqlab keluvchi birlilar hisoblanadi. Dostonlar tilida uchraydigan atroqli otlar ham xuddi shu xususiyatlari orqali arab-fors tillariga oid onomastik birliklarni o‘zida saqlab keladi. Aytish mumkinki, Xorazm regional antroponimikasida, xususan, Xorazm dostonlari antroponimlar tizimida turkiy qatlamga xos birliklar anchayin kam miqdorni tashkil etadi.

Ayollarga xos nomlarning o‘zini antroponimik tizimda juda kam miqdorni tashkil qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu holat yana ham kam miqdorni hosil qilishi mumkinligini his qilish qiyin emas. Biroq, bu holat turkiy qatlamga xos ayollarga xos ismlarining dostonlar leksikasida tamomila yo‘q ekan degan xusolaga borish degani emas. Qisqa qilib aytganda, Xorazm dostonlarida uchraydigan sof turkiy qatlamga xos ayollar nomlari barmoq bilan sanarlik darajada ekanligi olib borilgan tekshirishlardan ma’lum bo‘ldi.

Quyida ana shu nomlarni keltirib o‘tamiz. Demak, Xorazm dostonlari antroponimik fondining muayyan qismini turkiy asosga ega bo‘lgan ayollar ismlari tashkil qiladi. Jumladan, ***Oqcha*** // ***Aqcha*** (“Oshiqnoma” turkumi, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 26-bet), ***Bibijon*** (“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Arab Rayhon” dostoni, 80-bet), ***Boloyim*** (“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Avazxon” dostoni, 130-bet), ***Oyxon*** (“Oshiqnoma” turkumi, “Yusuf va Ahmad” dostoni, 16-bet), ***Suvchi qiz*** (“Oshiqnoma” turkumi, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 45-bet), ***Qaroko‘z*** (“Oshiqnoma” turkumi, “Yusuf va Ahmad” dostoni, 78-bet), ***Qaldirg‘och*** (“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Bozirgon” dostoni, 403-bet), ***Qora budoq*** (“Oshiqnoma” turkumi, “Sayod va Hamro” dostoni, 9-bet), ***Yalpoqbosh***

⁸ Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б.10

⁹ Q.Olloyorov. Xorazm dostonlari onomastikasi. –Samarqand: 2018. PhD.diss.avtoref. –Б. 12.

(“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostoni, 110-bet) kabilarni keltirish mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, turkiy qatlamga xos ayollar nomlari Xorazm dostonlari tilida anchayin kam miqdorni tashkil etadi. Buning sabablari sifatida, birinchidan, umumiy nomlar fondidagi ayollarga xos ismlarning hajman kam miqdorda ekanligi keltirilsa, ikkinchidan, antroponimik tizimning o‘zida turkiy asosli nomlar kam miqdorda ekanligini ham keltirish mumkin. Har holda, oldingi jumlada keltirilgan ayollarga xos turkiy nomlar ko‘p tekshirishlar natijasida to‘plangan nomlar hisoblanadi.

Tarkibida turkiy tillarga aloqador birliklar ishtirok etgan yana bir toifa nomlar bor, biroq bunday nomlarni to‘liqligicha turkiy qatlamga kiritib bo‘lmaydi. Bu tipdagi nomlarni alohida guruhga kiritib, gibridlashgan nomlar sifatida tahlilga tortishni maqsad qilganmiz. Quyida to‘liqligicha turkiy qatlamga kiruvchi ayollarga xos nomlardan ayrimlarining tarixiy-etimologik jihatlarini masalasiga to‘xtalamiz va imkon qadar oldingi fasllarda lug‘aviy-semantik yoki lisoniy-tarkibiy jihatlariga ko‘ra tahlilga tortilmagan nomlarga yuzlanamiz.

Bibijon. Ushbu nom Xorazmda nashr qilingan “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiritilgan “Arab Rayhon” dostonida uchraydi. Misol: “...*maslahatim shuki, buni yakka-yu yagona go‘zal qizi bo, odina **Bibijon** dab od baradila. Shuni bir aldab-suldab olib geta bilsak, ona unda utg‘onimiz...*” (80-bet). Ayollarga xos antroponimlardan hisoblangan *Bibijon* ismi tarixan ikki qismdan iborat bo‘lib, “bibi” hamda “jon” komponentlaridan tashkil topgan. Nomning birinchi qismi haqida ishimizning oldingi boblarida muayyan darajada ma’lumotlar berib o‘tganmiz. Ya’ni *bibi* elementi hatto slavyan manbalarida ham ayollar ismi hosil qiluvchi element sifatida keltirilgan.

Shuningdek, *bibi* elementi Xorazm dostonlaridagi ayollarga xos nomlar hosil qilishda ishtirok qiladigan eng faol elementlardan biridir. Ushbu komponent nomlar tarkibida qo‘llanilganda uch xil holatda namoyon bo‘ladi:

1. Nom asosidan keyin qo‘llaniladi: **Ashurbibi, Oyshabibi Rajabbibi** v.b.

2. Nom asosidan oldin qo‘llaniladi: **Bibisora, Bibimaryam, Bibizahro, Bibi Oysha, Bibi Hadicha, Bibi Fotima** kabilar.

3. Nomning asosi sifatida qo‘llaniladi: **Bibijon, Bibigul, Bibiniyoz** va boshqalar.

Nomning ikkichi komponenti hisoblangan *-jon* elementi haqida turli xil ilmiy qarashlarga duch kelamiz. O‘zbek nomshunosligining yetakchilaridan biri E.Begmatovning fikricha, *jon* elementi erkaklar ismlarini hosil qilishda ishtirok qiluvchi qism hisoblanadi. Misollar sifatida *Eshjon, Alijon, Boyjon* va boshqalar keltiriladi¹⁰. Shu bilan birga mazkur element ayrim o‘rinlarda *indikator*, boshqa o‘rinlarda *antropoformant* kabi terminlar bilan yuritiladi¹¹.

Xorazm dostonlari onomastikasi bo‘yicha keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borgan Q. Olloyorovning keltirishicha, *-jon* elementi ham erkaklar ismida ham ayollar ismida birdek

¹⁰ Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B.163.

¹¹ Begmatov E. O‘sha asar, 250-bet.

qo‘llanila oladigan “universal indikator” deya keltiriladi¹². Umuman, folklor asarlari, xususan, dostonlar tilida gender universalialar ancha keng kuzatiladigan hodisadir.

Bizningcha, mazkur elementni bitta qolipda, bir xil qoidaga binoan belgilash to‘g‘ri emas. Masalan, ayrim nomlar tarkibida oddiy erkalash kichraytirish affiksi vazifasida qo‘llaniladi. Bunda “jon” elementi o‘z asliy lug‘aviy ma’nosidan ancha uzoqlashgan holatda aylangan bo‘ladi. bunday nomlarga misol sifatida: *Avazjon, Rahimberdijon, Albandjon, Nargisjon* kabilarni keltirish mumkin. bizningcha, ushbu nomlar tarkibida qo‘llanilgan jon qismini indikator deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bularni oddiy shakl yasovchilar sifatida baholash to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

Oyxon. Ushbu shakldagi nom ham Xorazm dostonlarida qo‘llanilgan ayollarga xos turkiy asoslardan hosil qilingan birlik bo‘lib, “Oshiqnoma” turkumining 3-kitobiga mansub “Yusuf va Ahmad” dostonida uchraydi. Misol: “...yana biriga **Oyxon** der erdilar...” (16-bet). Mazkur nom ham ikkita ismdan iborat bo‘lib, birinchi komponenti “oy” osmon jismi ma’nosidagi apellativdan kishi nomlari hosil qiluvchi komponent vazifasiga moslashgan. Ushbu qismning zamonaviy o‘zbek antroponimikasida va tarixiy o‘zbek antroponimikasida qo‘llanishi ancha keng ekanligini bizgacha ma’lum bo‘lgan manbalar tasdiqlaydi.

Nomning ifoda imkoniyatlari anchayin keng bo‘lib, gender ifodalash nuqtayi nazaridan universallik namoyon qila oladi. Masalan, **Oygul, Oyjamol, Boloyim, Guloy, Oysulton** kabi nomlar tarkibida ayollarga xos semantik guruhni hosil qilishda qatnashadigan bo‘lsa, **Oybek, Oybola**¹³ nomlarida erkaklar ismlarini hosil qiluvchi komponent sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman, Xorazm dostonlari leksikasidagi uchraydigan xotin-qizlar ismlari orasida -**jon, -xon, -oy, -gul** kabi qismlar qatnashgan qo‘shma tarkibli nomlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Mazkur hodisa hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimiz uchun ham hosdir. Nomlar tarkibidagi -**jon, -xon, -oy, -gul** qismlari aslida mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan birliklar bo‘lib, nomlar tarkibida o‘zining mustaqilligini doim ham namoyon qilavermaydigan birliklardandir. Masalan, **Asljon, Bibijon, Guljon, Zuhrajon, Nargisjon, Nigorjon, Nishotjon, Sanamjon, Sarvijon, So’najon...** kabilarda -**jon** komponenti qatnashsa, **La’lixon, Muloyimxon, Oyxon, Ro’zaxon, Sayodxon, Tarlixon, Chinnixon...** kabilarda -**xon** komponenti; hamda **Gulnozoy, Gulqizoy, Holjuvonoy, Hiloloy...** kabilarda -**oy** komponenti ishtirok etgan.

Dostonlar onomastik tizimi, xususan, kishi ismlari fondi tekshirib ko‘rilganda ma’lum bo‘ladiki, -**jon, -xon, -oy, -gul** qismlari nafaqat xotin- qizlar nomlari tarkibida, balki erkaklar ismlari tarkibida ham birdek qo‘llana oladi. **Najotjon, Qoraxon...** kabilarda erkak kishi ismi tarkibida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Oyxon antroponimi tarkibining ikkinchi qismi -**xon** elementi ham turkiy tillarga mansub birlik sifatida baholanuvchi element hisoblanadi. Mazkur birlik haqida tilshunoslikka oid bir qancha manbalarda fikrlar bildirib o‘tiladi. Zikr qilinayotgan -**xon**

¹² Olloyorov Q. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatli universal nomlar va affiksoidlar. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. -Xiva: 2019. Maxsus son. -B.102; Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017.-B.74.

¹³ Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. -Toshkent: Fan, 2013. -B.110.

elementi o‘zbek onnomastik ko‘lamlarining nafaqat antroponimik tizimida balki boshqa onomastik ko‘lamlarda ham uchrashi manbalarda keltirilgan. Masalan, *Jayraxon* (yovvoyi hayvon nomi) (109-bet), *Mayizxon*, *Maysaxon* (o‘simliklar va ularning mahsuloti nomi) (110-bet), *Kenagaxon* (urug‘ va elat nomi) va boshqalar shular jumlasidandir. (Misollar E.Begmatovning “O‘zbek tili antroponimikasi” kitobidan olindi).

Biroq, *-xon* elementining asosiy qo‘llanish ko‘lami kishi ismlari bo‘lib, kelib chiqishi nuqtayi nazaridan mustaqil so‘zdir. Ushbu so‘z dastlab turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlarining unvoni sifatida ishlatilgan. VI asrlarda *qaan* O‘rta Osiyoda katta hududning hukmdorini anglatgan. Keyinchalik, turkiy xalqlarning islomni qabul qilishi munosabati bilan arabcha talaffuz qoidalariga moslashgan holda *xaqan* deb atalgan. X asrlardan Qoraxoniylar va Somoniylar davrida ushbu sulola vakillari nomiga *xon* qo‘shib ishlatilgan: *Qoraxon*, *Bug‘roxon*, *Arslonxon* va boshqalar.

Boloyim. Ushbu nom ham turkiy asosli ayollar nomi sifatida qaraladigan onomastik birlik sanaladi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Avazxon” dostonidan olingan quyidagi parchada uchraydi: “...yarmini bozorlik deb Guloyimga, yana bir yarmini kiyim-kechaklik deb **Boloyimga** ber...” (130-bet). Keltirilgan parchadan ham ko‘rinadiki, bu tipdagi nomlar o‘zaro ohangdosh, qofiyadosh bo‘lgan nomlar bilan birga o‘ylab topilgan va matnlarda qo‘llanilgan. Dostonlar matnlarida bunga o‘xshash holatlarni ko‘plab uchratish mumkin.

O‘zaro ichki qofiyadoshlik, sa‘j usullarida nom qo‘llash doston ijrochilarining odatiy holati deb qaraladi. Masalan, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Chortoqli Chambil” dostonidan olingan quyidagi parchaga e‘tibor qilaylik: “...Bularning ismlari: *Safarboy*, *Dalliboy*, *Solliboy*, *Tolliboy*, *Serma*, *Qirma*, *Mirtik*, *Sertik*, *Mutal*, *Butal*, *ey*, *qaysi birini aytay*, *bari zo‘r birday...*” (55-bet). Yuqoridagi parchada qo‘llanilgan **Boloyim** va **Guloyim** nomlari ana shunday situativ holatda qo‘llanilganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Boloyim ismining ham tarkiban ikki qismdan ekanligi birinchi qarashdayoq ko‘zga tashlanadi. *Bol* va *oyim* qismlari mazkur nomning hosil qilinishida ishtirok etgan komponentlardir. Har ikkala qism ham xarakter-xususiyatlariga ko‘ra ayol nomlari hosil qilishga moslashgan birliklardir. Bir qarashda nomning dastlabki unsuri *bol* turkiy tillarga mansub birlik sifatida qaralishi mumkin bo‘ladi. mazkur so‘z garchi dialektal so‘z sifatida baholanib, uning adabiy tilimizdagi muqobili arabiy tillarga aloqador “asal” so‘zi bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tiliga mansub ko‘plagan manblarda *bol* so‘zi adabiy norma sifatida qo‘llanilib kelinadi. Masalan, o‘zbek maqollari leksikasida mazkur so‘z o‘zining hozirgi zamonaviy muqobili hisoblangan “asal” so‘ziga ko‘ra ancha faolligini qayd qilish lozim.

Jumladan, “*Bol tutgan barmog‘ini yalar*”, “*Bola boldan shirin*”, “*Ari zahrin chekmagan bol qadrini bilmas*”, “*Yaxshi chechakka bolari qo‘nar*”, “*Suvsiz yerda tol bo‘lmas*, *Qovoqarida bol bo‘lmas*”¹⁴ kabi ko‘plagan maqollarimiz tarkibida *bol* so‘zi aynan *asal* ma‘nosida qo‘llanilgan. Bu jihatdan olib qaraganda **Boloyim** nomining semantikasida *shirin xonim*, *totli ayol* kabilar anglashiladi. Mumtoz va zamonaviy she‘riyatimizning ko‘p

¹⁴ O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev., A.Musoqulov., B.Sarimsoqov. -T.: Sharq, 2005. -B. 66-87.

o‘rinlarida go‘zal qizlar ta’riflanganda ularni “lablari bol”, “so‘zlari bol” kabi sifatlashlar bilan ta’riflanishi anchayin keng uchraydigan holatdir.

Endi *Boloyim* ismining birinchi komponenti haqida yana bir xulosa berish mumkin deb hisobladik. Ya’ni nomning dastlabki elementi *bol* eroniy tillarga oid “yuqori”, “ust”, “tepa”¹⁵ ma’nolaridagi *bolo* so‘zi asosiga aloqador bo‘lishi ham mumkin. Bunday xulosaga kelishimizga sabab bo‘luvchi omil shuki, dostonida qo‘llanilgan opa-singillarning kattasi *Boloyim* bo‘lib, uning “katta oyim”, “katta qiz” ekaniga ishora qilish imkoniyatining mavjudligidir. Agar shunday talqin asosli bo‘lsa, nomning to‘liq turkiy asoslar asosida shakllanganligi no‘to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Umuman, bunday xulosalar alohida tekshirilishi lozim deb o‘ylaymiz.

Boloyim nomining ikkinchi elementi *oyim* so‘zi ayollarga xos nomlar hosil qilishda ancha faol elementlardan hisoblanadi. Dostonlar tilidagi mazkur element ishtirokida **Guloyim, Qaldirg‘och oyim, La’lixon oyim, Tavka oyim** kabi ayollarga xos nomlar hosil qilgan bo‘lsa, o‘zbek antroponimikasida **Begoyim, Oqoyim, To‘qoyim, Xonoyim**¹⁶ kabi antroponimlar yasashda ishtirok etgan. O‘zbek tilining izohi lug‘atida “oyim” so‘zining bir necha semantik qirralari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, ularning ikkinchisi biz tahlilga tortayotgan shaklga to‘g‘ri keladi. Jumladan:

1. Oyim – onam degan ma’noda, situativ-dialektal;
2. Oqsuyaklarga mansub ayollarga murojaatda ularning nomiga, unvoniga qo‘shib ishlatiladigan yoki uning tarkibini tashkil etgan so‘z. **Mohlaroyim, Nigoroyim** va boshqalar¹⁷.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Olloyorov Q. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2020.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013.
3. Q.Olloyorov. Xorazm dostonlari onomastikasi. –Samarqand: 2018. PhD.diss.avtoref.
4. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013.
5. Olloyorov Q. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatli universal nomlar va affiksoidlar. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva: 2019.
6. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017.
7. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013.
8. O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev., A.Musoqulov., B.Sarimsoqov. – T.: Sharq, 2005.
9. Форсча-ўзбекча ўқув луғати. Тузувчилар: А.Рустамов., Қ.Каримов., З.Умаров. –Т: Ўқитувчи, 1983.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. [www.ziyouz.com kutubxomasi](http://www.ziyouz.com/kutubxomasi)

¹⁵ Форсча-ўзбекча ўқув луғати. Тузувчилар: А.Рустамов., Қ.Каримов., З.Умаров. –Т: Ўқитувчи, 1983. – Б.49.

¹⁶ Begmatov E. Keltirilgan manba, 164-bet.

¹⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. [www.ziyouz.com kutubxomasi](http://www.ziyouz.com/kutubxomasi). O harfi. –Б.99.